

## ALISHER NAVOIY MUMTOZ POETIKASIDA IQTIBOS SAN'ATINING O'RNI

Ergasheva Nilufar Akramjon qizi,  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Jurnalistika va o'zbek filologiyasi  
fakulteti talabasi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodida iqtibos san'ati o'rganiladi. Ayrim g'azallarida keltirilgan iqtiboslar tahlil etiladi. Ilohiy kitoblardan keltirilgan iqtiboslarga sharh beriladi.

**Kalit so'zlar:** qabasa, A.Husayniy, adabiyot, ilohiyot, "azaa", "zalamno robbano" va boshqalar.

Alisher Navoiy o'z ijodi bilan dunyo adabiyotida yangi bir adabiy bosqichga asos solgan va uni fors she'riyatidan kam bo'lmagan darajaga olib chiqqan katta iste'dod - so'z zargaridir. Buyuk shoirning har bir bayti, har bir misrasi ham shaklan, ham mazmunan pishiq, tashqi va ichki jihatdan mukammal bo'lgan ijoddir. Qaysi mavzu yoki vaznda yozilgan bo'lmasin, uning asarlarida navoiyona ruh ustunlik qiladi. Ma'lumki, she'riyatni majoziy vositalar va badiiy ifodasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Alisher Navoiy badiiy san'atlardan ham o'zidan ilgari ijod qilgan shoirlardan ko'ra mukammal foydalangan. Badiiy san'atlar bo'lmasa, poetik fikrning badiiy qimmatini haqida xulosa qilish ancha mushkul.

Navoiy ijodida boshqa badiiy san'atlarga nisbatan iqtibos san'ati Navoiyning asarlarida Qur'oni Karimdan parchalar keltirishi va dinni chuqur bilishi haqidagi ma'lumotlarga asos sifatida talqin qilinadi. Iqtibos arabcha "qabasa" so'zidan olingan bo'lib, olovdan ya'ni o'tdan bir siqim cho'g' olmoq, nur olmoq, ziyolanmoq, porlamoq, biror kimsadan ilm olmoq ma'nolarini anglatadi. **Atoullloh Husayniy** iqtibosni: *"Qur'on yo hadisdin bir nimani aning Qur'on yoki hadisdin oling'anig'a ishora bo'lmag'an tarzda kalomg'a kiritmakdin iborattur..."*,— deya ta'rif beradi. Demak, ta'rifga ko'ra, iqtibos san'ati bo'lishi uchun uni Qur'on yoki hadisdan

olinayotganiga ishora qilmagan holda kalomga kiritish kerak bo'lsa ham, yoki keltirilayotgan iqtibosning manbasiga ishora qilinmasa ham, islomning muqaddas manbalaridan xabardor kitobxon uchun unda ishlatilayotgan mohiyatni anglab olishga kifoya qiladigan darajadagi matnda mavjud bo'lgan kalit so'zlar, ilgari surilayotgan g'oya, belgilar orqali ishora qilinayotgan narsani topib olish mumkin bo'ladi. Yana ayrim adabiyotshunos olimlar: "Iqtibos – Qur'on oyatlari va hadislarining matnini adabiy asarda aynan keltirishga asoslangan badiiy san'at"-, deydi. Misol uchun, "azza man qana' va zalla man tama' " (qanoat qiluvchi aziz, ta'magir esa xor-u zalildir) hadisi Navoiyning quyidagi baytida aynan qo'llanilgan:

*Xorlig'lar boshi tama' bilg'il,*

*Doimo azza man qana' bilg'il.*

Aytish kerakki, iqtibos ham lafziy, ham ma'naviy san'atlar sirasiga kiradi. Chunki, nazmiy va nasriy asarlarda birdek qo'llaniladi. Navoiydan avval ijod qilgan shoirlar ham iqtibosni g'azallarida aynan yoki ma'nosini saqlab qolgan holda qo'llab kelishgan. Shu tariqa shoirlar misralarida iqtibos san'ati oyat yoki hadisning matnini aynan keltirish yoki ishora qilish kabi turlarga bo'linadi:

1. Qur'oni Karim oyatlari yoki hadislar aynan keltiriladigan iqtibos. Bunda shoir lirikasida oyat va hadislar matni to'lig'icha keltiriladi. Navoiyning lirik asarlarida iqtibosning darj ko'rinishi nihoyatda chiroyli san'atkorlik bilan qo'llangan. Shoir lirikasida iqtibosning bu ko'rinishi matnning bezagi, ziynati bo'lish bilan birga muallif fikrini quvvatlovchi, kuchaytiruvchi vosita bo'lib xizmat qilgan. Va bu *darj* deb atalgan.

2. Asarda oyat va hadisning ma'no va mazmuni keltiriladi, ishora qilinadi. Ba'zan manbalarda nazmning mazmunini nasrda chiroyli bayon qilish ham "*hall*" deyilishi kuzatiladi. Masalan, Alisher Navoiyning quyidagi mashhur baytini sharhlasak:

*Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,*

*Oncha borkim, Ka'ba vayron o'lsa, obod aylagay.*

Mazkur bayt turli olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Baytni izohlash jarayonida Navoiyning ayni shu fikrlarni shunchaki to'qib aytmaganiga, bir

nechta omillarni asos qilib olganiga ishonch hosil qilish mumkin. Jumladan, quyidagi hadisi qudsiyda aytiladi: “Men sizlarning na suratlaringizga, na chiroylaringizga qarayman. Balki qalblaringizga nazar solaman va sizlardagi yaxshi xislatlardan rozi bo‘laman”. Yana Qur’onda o‘qishimiz mumkin: *“Albatta, Men ko‘z ochib-yumguncha ham qalbingdan g‘ofil emasman. Albatta Men qalblarni bilguvchi Zotman.”* Ko‘rinib turibdiki, Navoiyning baytida aslida yuqorida keltirilgan hadislarining mazmun-mohiyati nazmiy bayon etilmoqda. Shu bilan birga, shoirning mazkur baytda bu fikrlarning yuqorida sanab o‘tilgan hadislardan olinayotganiga ishora qilmagani Atoulloh Husayniy ta’rifidagi iqtibosning namunasi ekanligini anglatadi. Hadislarda inson qalbini Ka’baga tenglashtirish bilan birga unga xursandchilik olib kelishning ulug‘ fazilat ekanligi e’tirof etilayotgan bo‘lsa, Navoiy mazkur fikrni boyitib, dili vayron bo‘lgan, hayot qiyinchiliklaridan ezilgan, charchagan kishining ko‘nglini ko‘tarish, xursand qilib, mushkullarini yengillatish go‘yo vayron bo‘lgan Ka’bani qayta tiklashdir, deya o‘ziga xos qiyosni yuzaga keltirgan. Bu o‘rinda ishlatilayotgan *“ko‘ngli buzuvchi”, “xotirin shod aylamoq”, “Ka’bani obod qilmoq”* kabi kalit so‘z va jumlar o‘quvchiga baytning mazmun-mohiyatini yuqoridagi hadislariga bog‘liq holda ekanini anglatadi. Bizga ma’lumki, hadisi qudsiyda Rasululloh sallallohu alayhi vasallam Alloh taoloning aytgan gaplarini o‘z iboralari bilan naql qiladilar. Hadis ulamolari istilohida: “Bizga Nabiy sallallohu alayhi vasallamdan naql qilingan va Alloh taolaga isnod berilgan hadis “hadisi qudsiy” deyiladi”. Ya’ni hadisi qudsiyning ma’nosi Alloh tarafidan, lafzi esa Nabiy sallallohu alayhi vasallam tarafidan bo‘ladi. Yuqorida keltirilayotgan qudsiy hadislardan anglashiladiki, Alloh hamisha kishilarning qalbiga nazar solib, undan voqif bo‘lib turadi. Jaloliddin Rumiyning quyidagi mashhur fikrini ham yuqoridagi qudsiy hadislarining sharhi deyish mumkin: *“Eng buyuk haj bir ko‘ngilga yo‘l topib kirishdir. Bir ko‘ngil yuzlarcha Ka’badan go‘zaldir. Ka’ba hazrati Ibrohim Xalilulloh qurgan imorat bo‘lsa, ko‘ngil Aziz va Jalil bo‘lgan Alloh taoloning nazargohidir”*. Bu borada yana Navoiyning o‘zida shunday misralarni o‘qiymiz:

Ka’baki, olamning o‘lub qiblasi,

Qadri yo‘q andoqki, ko‘ngul ka‘basi.

Kim bu xaloyiqqa erur sajdagoh,

Ul biri Xoliqqa erur jilvagoh.

Ya‘ni, garchi xaloyiq uchun qiblagoh bo‘lgan Ka‘ba butun olamning qiblasi bo‘lsa ham, ko‘ngil ka‘basi oldida uning qadri yo‘qdir. Chunki Ka‘ba xaloyiqqa – yaratiqqa sajdagoh bo‘lsa, ko‘ngil Xoliqqa – Yaratuvchiga jilvagohdir.

Bundan tashqari, shoirning “Nazm ul-javohir” asarida Qur’on o‘qishning foydalari haqida shunday yozilgan:

Olam eli ichra gar gado, gar shoh erur,

Ne dardki, ul ko‘ngli aro hamroh erur.

Qur’onni tilovat etsun, gar ogoh erur,

El dardiga chun davo Kalomulloh erur.

Boshqa bir baytda esa Alisher Navoiy Qur’on tilovati haqida quyidagi misralarni yozadi:

“Qur’on”ki erur mujdai joni o‘qumoq,

Yo‘q, yo‘qki, hayoti jovidoniy o‘qumoq,

Bil, ko‘ngulga istasang shifoni o‘qumoq,

Kim keldi ko‘ngul shifosi oni o‘qumoq.

Shoir mazkur satrlarni keltirganda “Isro” surasining Qur’onning mo‘minlar uchun shifo ekanligi to‘g‘risidagi 82-oyati:

وَنُزِّلُ مِنَ الْقُرْآنِ مَا هُوَ شِفَاءٌ وَ رَحْمَةٌ لِّلْمُؤْمِنِينَ

(Va nunazzilu minal-qur’aanu maa huva shifaaun va rohmatun lil-mu’miniina)

“Biz Qur’onni mo‘minlar uchun shifo va rahmat o‘laroq nozil qilurmiz”, – degan mazmundagi oyatga to‘liq tayanganini yaqqol ko‘rish mumkin. Yoki mazmunini sharhlaganimizda shoh ham, gado ham Alloh oldida teng, U buyurgan Kitobni o‘qishga kirishishi nur ustiga a’lo nur, Qiyomat kunida shoh ham, gado ham bir xil mavqedadir, degan xulosaga kelamiz.

Yoki Navoiyning “Favoyid ul-kibar” devonidagi 1-g‘azalning ikkinchi baytini tahlilga tortsak:

*Chekmay falak lutfung tuni, juz zikr ila tasbih uni,*

*Odam debon qahring kuni har dam “zalamno rabbano”.*

Baytda keltirilgan “Zalamno rabbano” soʻzlari “Aʼrof” surasining 23-oyatidan olingan: “Qoolaa robbanaa zolamnaa anfusanaa va in lam tagʼfirlanaa va tarhamnaa lanakuunanna minal xoosiriina”.

Yaʼni: “Ikkovlari: “Ey Robbimiz, biz oʻzimizga zulm qildik. Agar sen bizni magʼfirat qilmasang va bizga rahm qilmasang, albatta, ziyon koʻrganlardan boʻlamiz”, – dedilar. Ushbu oyat Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilgandan soʻng Allohga qilgan tavbalari mazmunini bildiradi. Baytda esa tunda Seni zikr qilmay, poklab yod etmay, qahring kuni – Yakunda odam har dam “Oʻzimizga zulm qildik, ey Robbimiz”, – deydi. Xudoni har doim zikr qilish, unga tasbeh oʻgirish eng saodatli ishlardan biri ekanini anglashimiz mumkin.

Sharq mumtoz sheʼriyati oʻziga xos badiiy ruh, ruhiy-maʼnaviy yuksaklik va diniy-falsafiy qarashlar uygʻunligi bilan ajralib turadi. Bu sheʼriyatda shakl va mazmun jihatidan Qurʼoni karim va hadisi shariflarga murojaat qilish juda keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Ayniqsa, aruz vaznining bir necha bahrlarining Qurʼon oyatlari vazni asosida vujudga kelgani, mumtoz sheʼriyatda ilohiy soʻzning ohangidan ilhomlanilganini koʻrsatadi. Shuningdek, Qurʼon va hadisda ishlatilgan badiiy sanʼatlar — tajnis, tazod, istiora, tashbih kabi uslublar ham mumtoz adabiyotda oʻziga xos oʻrin egallagan. Iqtibos sanʼatini qoʻllagan shoirlar, din ahkomlaridan, Paygʻambarimiz Muhammad (s.a.v.) hayot yoʻllaridan dalil keltirib, oʻz gʻoyalarini asoslaganlar. Bu esa Sharq sheʼriyatining nafaqat estetik, balki ruhiy-maʼnaviy tarbiya vositasi sifatidagi oʻrni va ahamiyatini yanada oshiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hojiahmedov A. Sheʼriy sanʼatlar va mumtoz qofiya. – T.: Oʻqituvchi, 1999.
2. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. Oʻquv qoʻllanma. –T.: Akademnashr, 2020. – 304 b.
3. Имом Ғаззолий. Қирқ ҳадиси қудсий. – Тошкент: Тошкент ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2008. – 20 б.

4. Navoiy A. To‘la asarlar to‘plami. 10 jildlik. 3-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2013. –764 b.
5. “Олтин силсила” – “Саҳиҳул Бухорий”. 1-жуз. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф ва таржимонлар гуруҳи. – Тошкент: Hilol-Nashr, 2023. – 672 б.
6. Шайх Муҳаммад Содик Муҳаммад Юсуф. Тафсири Ҳилол. 1-жуз. – Т.: Hilol-nashr, 2022. – 666 б.